

**ISSIQLIK ENERGETIKASIDA SUVNI TERMIK DEARATOR
YORDAMIDA GAZLARDAN TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

R.M.Yusupaliyev

X.M. Aliyev

Magistr.

Annotatsiya: Maqolada issiqlik energetikasida ishlatiladigan suv tarkibidagi kislород va karbonot angidrid gazlari ta'siridabo'ladigan korroziya jarayonlarini kamaytirish maqsadida dearator qurilmasi bakida yangi texnologiyani qo'llash imkoniyati va bu jarayonda gazlarning texnologik kamayish darajasini xisoblash natijalari bo'yicha asoslab berilgan.

В статье рассматриваются возможности снижения концентрации коррозионно-агрессивных газов в питательной воде при термической и химической очистке воды в деаераторах с применением новой технологии и результатов технологического расчета по уменьшению концентрации этих газов при эксплуатации деаэраторов.

The article is based on the results of calculating the technological feasibility of the gases and the baking device in order to reduce the carbonaceous gases corrosion-attack in the water used in thermal energy.



Kalit so'zlar:cho'kindi, bug' generatori, mayor,tizim, mutanosib, faol, betaraf, dearator, reagent ta'minot suvi.

Ma'lumki Issiqlik energetikasida bug' olish uchun beriladigan suv tarkibidagi barcha moddalardan tozalanishi bilan birgalikda gazlardan xam yuqori darajada tozalashni talab qilinadi. Bunga sabab bug' olish uchun ishlatiladigan suv tartibida mavjud bo'lgan gazlar ta'sirida suv va bug' bilan muloqatda bo'lgan issiqlik almashinuvchi metall yuzalarda ximiyaviy xamda elektroximiyaviy korroziya jarayonlari sodir bo'ladi. Buning natijasida suv va bug' xarakatlanayotgan barcha qurilmalarning samaradorligi kamayadi va ishslash muddati keskin qisqarib boradi. Shu

sababli bu soxada ishlatiladigan suv gazlaridan ikki bosqichda, dearator qurilmasida xamda ta'minot suviga ximiyaviy reagentlar qo'shish yo'li bilan yuqori darajada tozalanadi.

Xozirgi vaqtida dearator qurilmasining samaradorligini oshirish maqsadida chet el adabiyotlarida dearator bakidagi suv yuzasiga temir simli to'r moslamasi o'rnatish tajribada tadbiq qilingan. Suv yuzasiga bunday moslama o'rnatilganda bakdagi suv tarkibidagi kislarodning temir elementi bilan birikishi xisobiga uning miqdori yanada kamayishi xisoblash natijalari asosida aniqlangan.

Bu jrayonda suv tarkibidagi kislarodning temir moddasi bilan birikishi quyidagi ximiyaviy reaksiyalar natijasida sodir bo'ladi.



Bu reaksiyalardan ko'rindiki kislarodning xar bir gramm temir element bilan birikishi natijasida temir uch oksidi (Fe_2O_3) xosil bo'lganda 0,2 gr kislarod temir moddasiga yutiladi. Bu jarayon suv tarkibida mavjud bo'lgan CO_2 gazning miqdori xam kamayishi quyidagi reaksiyalar natijasida sodir bo'ladi:



Quyidagi 1-jadvalda dearator bakidagi suv tarkibidagi O_2 va CO_2 gazlarining temir moddasi bilan birikishi natijasida bu gazlarning kamayish miqdori keltirilgan.


1-Jadval

O_2 va CO_2 gazlarining temir bilan birikish reaksiyalari	Gazlarning kamayish miqdori	
	Gr.da	% da
Kislarodning kamayish		

$2\text{Fe} + \text{O}_2 = 2\text{FeO}$	0,23	2,3
$4\text{FeO} + 3\text{O}_2 = 2\text{Fe}_2\text{O}_3$	0,11	1,1
$4\text{Fe} + 3\text{O}_2 = 2\text{Fe}_2\text{O}_3$	0,31	3,1
$3\text{Fe} + 2\text{O}_2 = \text{Fe}_3\text{O}_4$	0,27	2,7
$\text{FeO} + \text{Fe}_2\text{O}_3 = \text{Fe}_3\text{O}_4$	0,0	0,0
JAMI	0,91	9,1
Karbonat angidridning kamayish		
$\text{FeO} + \text{CO}_2 = \text{FeCO}_3$	0,37	3,7
$\text{Fe} + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} = \text{FeCO}_3 + \text{H}_2$	0,37	3,7
$2\text{Fe} + 3\text{CO}_2 + 3\text{H}_2\text{O} = \text{Fe}_2(\text{CO}_3)_3 + \text{H}_2$	0,58	5,8
$\text{Fe} + \text{CO}_2 + 3\text{O}_2 = 2\text{Fe}_2(\text{CO}_3)_3$	0,42	4,2
JAMI	1,74	1,74

Xisoblash natijalariga asosan dearator bakidagi suv tarkibidagi O_2 ning miqdori xar litrda 10 mkg atrofida bo'lganda, uning temir bilan birikishi natijasida kamayish darajasi 9-10% foyizni CO_2 gazining kamayish darajasi esa 17-18 foyizni tashkil etadi.



Quyidagi rasmida dearator bakiga temir simli to'r-moslamaning o'rnatilishi kuzatilgan.



1-rasm. Temir simli moslamaning dearator bakidagi suv yuzasiga o'rnatilishi:
1-dearator qurilmasi; 2-dearator bakidagi suv; 3-temir aimli to'rning suv yuzasiga
o'rnatilishi, 4-suvning berilishi.

Temir elementining CO_2 gazi bilan birikishi natijasida bir gramm $\text{Fe}_2(\text{CO}_3)_3$
xosil bo'lishida 0,42 gr. CO_2 gazi sarflanishi bilan bиргаликда 0,2 gr. O_2 xам sarflanadi.

Agarda dearator bakidagi suv tarkibida kislarodning miqdori xar litrda 10
mkg bo'lsa uning miqdori 7-8 mkgga tushadi. Kamayish darajasi 10% atrofida bo'ladi.
 CO_2 kamayish darajasi esa 17-18% ni tashkil qiladi. Bu usulda dearator bakidagi suv
tarkibida kislarodning kamayish darajasi quyidagi omillarga ya'ni suv yuzasida
joylashgan temir simli to'rmoslamaning satxiga, bakdagi suvning xaroratiga va
suvning dearotor bakida bo'ish vaqtiga bog'liq. Dearator bakidagi suvning
temperaturasi qancha yuqori bo'lsa suv tarkibidagi O_2 xamda CO_2 gazining bug' fazaga
o'tishi tezlashadi, ya'ni bug' fazasida ularning konsentratsiyasi ko'payadi, natijada bu
gazlarning temir elementi birikish imkoniyati yanada ortadi. Bu usulning yutuq tomoni
ta'minot suvni ammiak xamda gidrazin eritmasi bilan tozalashda bu moddalarning
ta'minot suviga qo'shildigan miqdori xam kamayadi. Ta'minot suviga qo'shilgan
gidrazin xamda ammiak birikmasi suv tarkibidagi O_2 xamda CO_2 gazlari bilan yuqori
darajada reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgani uchun ularning bu gazlar bilan
birikishi quyidagi reaksiyalar asosida sodir bo'ladi.



Bu reaksiyalar natijasida dearator bakidagi xar bir litr suv tarkibidagi 10 mkg
miqdordagi kislarodni biriktirish uchun 10 mkg gidrazin sarflansa bakdagi suv
tarkibidagi kislarodning miqdori 10 % ga kamayishi xisobiga sarflangan sarflangan
gidrazinning miqdori xam 10 foizga kamayadi.

Suvni gazlardan tozalash jarayonida unga beriladigan gidrazin xamda ammiak birikmalarining miqdori kamayishi, bu soxada sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi, xamda suvning gazlardan to'la darajada tozalanish imkoniyati ortadi.

Shu sababli bunday yangi texnologiyaning yutuk tomonlarini e'tiborga olgan xolda uni respublikamizda mavjud bo'lган yuqori quvvatli elektr stansiyalarida xamda issiqlik tarmoqlarida ishlatalayotgan dearatorlarda xam ishslash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupaliev R.M. "IESda suv tayyorlash texnologiyasi va ximiyaviy nazorat" darslik "Cho'lpon" nashryoti - Toshkent 2013 yil.
2. Ямлеева Э.У. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.т.н.г Казань 2005 г Ульяновск УГТУ.
3. Шарипов В.И. и др. "Технология управления термическими деараторами" Монография Ульяновск. УлГТУ , 2004 г.
4. Б.Х.Юнусов, М.М.Азимова. "Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari". Toshkent, "Voris - nashriyoti", 2014yil 168 bet.